

XI. TASHQI IQTISODIY FAOLIYAT


Viloyatning tashqi savdo aylanmasi 2025-yilning yanvar-dekabr oylarida 2 344,7 mln. AQSH dollarini, jumladan eksport 1 397,8 mln. AQSH dollarini, import 946,9 mln. AQSH dollarini tashkil etdi.

Tashqi savdo aylanmasining saldosi 450,9 mln. AQSH dollarni, shu jumladan MDH davlatlari bilan 18,6 mln. AQSH dollarini va boshqa davlatlar bilan 432,3 mln. AQSH dollarini tashkil etdi.


Viloyatning tashqi savdo aylanmasi (2025- yil yanvar-dekabr oylarida)

| | <i>Tashqi savdo aylanmasi mln. AQSH doll.</i> | | | <i>Eksport mln. AQSH doll.</i> | | | <i>Import mln. AQSH doll.</i> | | |
|--------------------------|---|----------------|-------------------------------------|------------------------------------|----------------|-------------------------------------|-----------------------------------|--------------|-------------------------------------|
| | <i>2024</i> | <i>2025</i> | <i>O'sish sur'ati, % da</i> | <i>2024</i> | <i>2025</i> | <i>O'sish sur'ati, % da</i> | <i>2024</i> | <i>2025</i> | <i>O'sish sur'ati, % da</i> |
| Jami | 1 601,1 | 2 344,7 | 146,4 | 1 117,8 | 1 397,8 | 125,0 | 483,3 | 946,9 | 195,9 |
| Navoiy sh. | 1 036,6 | 1 462,6 | 141,1 | 875,0 | 1 197,6 | 136,9 | 161,6 | 265,0 | 164,0 |
| Zarafshon sh. | 18,0 | 8,2 | 45,7 | 3,3 | 2,4 | 72,9 | 14,7 | 5,8 | 39,6 |
| G'ozg'on sh. | 3,7 | 3,5 | 97,1 | 2,8 | 3,0 | 108,3 | 0,9 | 0,5 | 61,6 |
| Karmana t. | 365,1 | 266,0 | 72,9 | 111,9 | 123,0 | 109,9 | 253,2 | 143,0 | 56,5 |
| Konimex t. | 7,7 | 3,7 | 47,9 | 2,3 | 1,1 | 49,4 | 5,4 | 2,6 | 47,3 |
| Qiziltepa t. | 31,8 | 40,3 | 126,8 | 15,4 | 18,6 | 121,1 | 16,4 | 21,7 | 132,2 |
| Navbahor t. | 38,4 | 22,7 | 58,9 | 24,7 | 13,9 | 56,1 | 13,7 | 8,8 | 63,8 |
| Nurota t. | 8,5 | 56,2 | 6,6 m. | 6,3 | 5,5 | 88,7 | 2,2 | 50,7 | 22,9 m. |
| Tomdi t. | 4,4 | 54,8 | 12,5 m. | 0,1 | 2,7 | 19,4 m. | 4,3 | 52,1 | 12,3 m. |
| Uchquduq t. | 4,2 | 3,1 | 73,8 | 0,5 | 1,1 | 195,6 | 3,7 | 2,0 | 55,7 |
| Xatirchi t. | 80,9 | 30,2 | 37,3 | 73,7 | 18,4 | 24,9 | 7,2 | 11,8 | 164,2 |
| Bo'linmay- digan hajm | 1,8 | 393,4 | - | 1,8 | 10,5 | - | - | 382,9 | - |

Viloyat tashqi savdo aylanmasida eksportning ulushi, % da




Viloyat tashqi savdo aylanmasida importning ulushi, % da




Aholi jon boshiga tashqi savdo aylanmasi hajmi

| | <i>Tashqi savdo aylanmasi</i> | | <i>Eksport</i> | | <i>Import</i> | |
|---------------------|-------------------------------|-------------------------------------|------------------------|-------------------------------------|------------------------|-------------------------------------|
| | <i>mln. AQSH doll.</i> | <i>Aholi jon boshiga AQSH doll.</i> | <i>mln. AQSH doll.</i> | <i>Aholi jon boshiga AQSH doll.</i> | <i>mln. AQSH doll.</i> | <i>Aholi jon boshiga AQSH doll.</i> |
| Jami | 2 344,7 | 2 125,1 | 1 397,8 | 1 266,9 | 946,9 | 858,2 |
| Navoiy sh. | 1 462,6 | 8 659,5 | 1 197,6 | 7 090,9 | 265,0 | 1 568,7 |
| Zarafshon sh. | 8,2 | 90,3 | 2,4 | 26,5 | 5,8 | 63,8 |
| G'ozg'on sh. | 3,5 | 376,9 | 3,0 | 319,6 | 0,5 | 57,3 |
| Karmana t. | 266,0 | 1 856,8 | 123,0 | 858,6 | 143,0 | 998,2 |
| Konimex t. | 3,7 | 100,2 | 1,1 | 30,7 | 2,6 | 69,5 |
| Qiziltepa t. | 40,3 | 243,1 | 18,6 | 112,3 | 21,7 | 130,8 |
| Navbahor t. | 22,7 | 183,4 | 13,9 | 112,4 | 8,8 | 71,0 |
| Nurota t. | 56,2 | 615,4 | 5,5 | 60,8 | 50,7 | 554,6 |
| Tomdi t. | 54,8 | 3 598,3 | 2,7 | 174,5 | 52,1 | 3 423,9 |
| Uchquduq t. | 3,1 | 77,7 | 1,1 | 26,6 | 2,0 | 51,1 |
| Xatirchi t. | 30,2 | 138,7 | 18,4 | 84,4 | 11,8 | 54,3 |
| Bo'linmaydigan hajm | 393,4 | - | 10,5 | - | 382,9 | - |


Aholi jon boshiga tashqi savdo aylanmasi hajmi, (AQSH doll.)



Aholi jon boshiga eksport hajmi, (AQSH doll.)



Aholi jon boshiga import hajmi, (AQSH doll.)



2025-yil yanvar-dekabr oylarida kichik biznes subyektlari tomonidan 75,3 mln. AQSH dollari (umumiy eksport hajmining 5,4 %) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) eksport qilindi, 667,8 mln. AQSH dollari (umumiy import hajmining 70,5 %) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) import qilindi.

2025- yil yanvar-dekabr oylarida kichik biznes subyektlarining tashqi savdo tarkibidagi ulushi.

| | <i>Tashqi savdo aylanmasi mln. AQSH doll.</i> | | | <i>Eksport mln. AQSH doll.</i> | | | <i>Import mln. AQSH doll.</i> | | |
|---------------|---|--------------------------|---|------------------------------------|--------------------------|---|-----------------------------------|--------------------------|---|
| | <i>Jami</i> | <i>Kichik biznes</i> | <i>Kichik biznes ulushi, % da</i> | <i>Jami</i> | <i>Kichik biznes</i> | <i>Kichik biznes ulushi, % da</i> | <i>Jami</i> | <i>Kichik biznes</i> | <i>Kichik biznes ulushi, % da</i> |
| Jami | 2 344,7 | 743,1 | 31,7 | 1 397,8 | 75,3 | 5,4 | 946,9 | 667,8 | 70,5 |
| Navoiy sh. | 1 462,6 | 147,1 | 10,1 | 1 197,6 | 19,4 | 1,6 | 265,0 | 127,7 | 48,2 |
| Zarafshon sh. | 8,2 | 6,0 | 72,5 | 2,4 | 2,3 | 95,9 | 5,8 | 3,7 | 62,8 |
| G'ozg'on sh. | 3,5 | 3,5 | 100,0 | 3,0 | 3,0 | 100,0 | 0,5 | 0,5 | 100,0 |
| Karmana t. | 266,0 | 63,0 | 23,7 | 123,0 | 5,1 | 4,2 | 143,0 | 57,9 | 40,5 |
| Konimex t. | 3,7 | 2,7 | 70,6 | 1,1 | 0,8 | 66,7 | 2,6 | 1,9 | 72,4 |

| | <i>Tashqi savdo aylanmasi mln. AQSH doll.</i> | | | <i>Eksport mln. AQSH doll.</i> | | | <i>Import mln. AQSH doll.</i> | | |
|---------------------|---|----------------------|---------------------------------------|------------------------------------|----------------------|---------------------------------------|-----------------------------------|----------------------|---------------------------------------|
| | <i>Jami</i> | <i>Kichik biznes</i> | <i>Kichik biznes ulushi, % da</i> | <i>Jami</i> | <i>Kichik biznes</i> | <i>Kichik biznes ulushi, % da</i> | <i>Jami</i> | <i>Kichik biznes</i> | <i>Kichik biznes ulushi, % da</i> |
| Qiziltepa t. | 40,3 | 40,1 | 99,5 | 18,6 | 18,6 | 100,0 | 21,7 | 21,5 | 99,1 |
| Navbahor t. | 22,7 | 9,7 | 43,0 | 13,9 | 3,5 | 25,2 | 8,8 | 6,2 | 71,1 |
| Nurota t. | 56,2 | 50,2 | 89,4 | 5,5 | 0,4 | 8,0 | 50,7 | 49,8 | 98,3 |
| Tomdi t. | 54,8 | 9,8 | 17,7 | 2,7 | 2,7 | 100,0 | 52,1 | 7,1 | 13,5 |
| Uchquduq t. | 3,1 | 3,1 | 100,0 | 1,1 | 1,1 | 100,0 | 2,0 | 2,0 | 100,0 |
| Xatirchi t. | 30,2 | 14,6 | 48,4 | 18,4 | 8,0 | 43,5 | 11,8 | 6,6 | 56,0 |
| Bo‘linmaydigan hajm | 393,4 | 393,3 | - | 10,5 | 10,4 | - | 382,9 | 382,9 | - |

Viloyatning tashqi savdo aylanmasi


Tashqi savdo aylanmasining saldosi 450,9 mln. AQSH dollari, shu jumladan MDH davlatlari bilan 18,6 mln. AQSH dollarini va boshqa davlatlar bilan 432,3 mln. AQSH dollarini tashkil etdi.

| | <i>mln. AQSH dollari</i> | <i>o‘shish sur‘ati, % da</i> | <i>yakunga nisbatan, ulushi % da</i> |
|-------------------------------|--------------------------|----------------------------------|--|
| Tashqi savdo aylanmasi | 2 344,7 | 146,4 | 100,0 |
| MDH davlatlari | 263,6 | 90,7 | 11,2 |
| boshqa davlatlar | 2 081,1 | 158,8 | 88,8 |
| Eksport | 1 397,8 | 125,0 | 100,0 |
| MDH davlatlari | 141,1 | 92,0 | 10,1 |
| boshqa davlatlar | 1 256,7 | 130,3 | 89,9 |
| Import | 946,9 | 195,9 | 100,0 |

davomi

| | <i>mln. AQSH dollari</i> | <i>o'sish sur'ati, % da</i> | <i>yakunga nisbatan, ulushi % da</i> |
|------------------|--------------------------|-----------------------------|--------------------------------------|
| MDH davlatlari | 122,5 | 89,3 | 12,9 |
| boshqa davlatlar | 824,4 | 2,4 m. | 87,1 |
| Saldo | 450,9 | x | x |
| MDH davlatlari | 18,6 | x | x |
| boshqa davlatlar | 432,3 | x | x |

MDH va boshqa davlatlarning viloyat tashqi savdo aylanmasidagi ulushi, % da



Viloyat rezidentlarining tashqi savdo operatsiyalari asosan, jami tovar aylanmasida Yevropa (47,7 %), Osiyo (49,5 %), Amerika (2,8 %) qit'alari bilan amalga oshirilgan.

Viloyat tashqi savdo aylanmasining qit'alar bo'yicha taqsimlanishi (2025- yil yanvar-dekabr oylarida, mln. AQSH dollari)

| | <i>Eksport</i> | <i>Import</i> | <i>Tashqi savdo aylanmasi</i> | |
|----------------------|----------------|---------------|-------------------------------|-------------------------------------|
| | | | <i>O'sish sur'ati, % da</i> | <i>Jamiga nisbatan, ulushi % da</i> |
| Jami | 1 397,8 | 946,9 | 146,4 | 100,0 |
| <i>shu jumladan:</i> | | | | |
| Yevropa | 978,4 | 141,1 | 105,1 | 47,7 |
| Osiyo | 392,2 | 768,6 | 2,3 m. | 49,5 |
| Amerika | 27,2 | 37,2 | 164,8 | 2,8 |

MDH davlatlari orasida Rossiya Federatsiyasi, Qozog‘iston va Qirg‘iz Respublikasida tashqi savdo aylanmasi asosiy hamkorlar hisoblanib, ularning jami tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 9,4 foizni, boshqa davlatlar orasida Fransiya, Xitoy Xalq Respublikasi, Turkiya, Hindiston, Yaponiya, AQSH, Daniya, Germaniya, BAA, Buyuk Britaniya, Afg‘oniston, Litva va boshqa davlatlar hisoblanib, ularning ulushi 90,6 foizni tashkil etdi.

Viloyat tashqi tovar aylanmasida nisbatan katta ulushga ega bo‘lgan davlatlar (2025-yil yanvar-dekabr oylarida)

| <i>Davlatlar nomi</i> | <i>mln. AQSH dollari</i> | <i>o‘shish sur‘ati, % da</i> | <i>viloyat tovar aylanmasidagi ulushi, % da</i> |
|-----------------------|--------------------------|------------------------------|---|
| Fransiya | 860,7 | 110,4 | 36,7 |
| Xitoy | 734,5 | 4,2 m. | 31,3 |
| Rossiya Federatsiyasi | 137,0 | 81,0 | 5,8 |
| Turkiya | 131,3 | 198,8 | 5,6 |
| Qozog‘iston | 66,1 | 90,1 | 2,8 |
| Hindiston | 54,9 | 105,6 | 2,3 |
| Yaponiya | 46,1 | 2,0 m. | 2,0 |
| AQSH | 41,9 | 143,9 | 1,8 |
| Daniya | 29,3 | 92,9 | 1,2 |
| Germaniya | 24,1 | 101,2 | 1,0 |
| BAA | 22,9 | 16,5 m. | 1,0 |
| Qirg‘iz Respublikasi | 19,5 | 119,9 | 0,8 |
| Buyuk Britaniya | 14,6 | 132,4 | 0,6 |
| Afg‘oniston | 13,9 | 60,0 | 0,6 |
| Litva | 13,4 | 98,3 | 0,6 |

Viloyatning eksport aylanmasida nisbatan katta ulushga ega bo'lgan davlatlar (2025-yil yanvar-dekabr oylarida)

| <i>Davlatlar nomi</i> | <i>Eksport aylanmasi mln. AQSH dollari</i> | <i>Viloyatning eksport aylanmasidagi ulushi, % da</i> |
|-----------------------|--|---|
| Fransiya | 854,1 | 61,1 |
| Xitoy | 244,4 | 17,5 |
| Rossiya Federatsiyasi | 76,8 | 5,5 |
| Hindiston | 49,2 | 3,5 |
| Daniya | 28,5 | 2,0 |
| Qozog'iston | 21,5 | 1,5 |
| Qirg'iz Respublikasi | 16,9 | 1,2 |
| Turkiya | 14,7 | 1,1 |
| Afg'oniston | 13,8 | 1,0 |
| AQSH | 10,2 | 0,7 |

Viloyatning import aylanmasida nisbatan katta ulushga ega bo'lgan davlatlar (2025-yil yanvar-dekabr oylarida)

| <i>Davlatlar nomi</i> | <i>Import aylanmasi mln. AQSH dollari</i> | <i>Viloyatning import aylanmasidagi ulushi, % da</i> |
|-------------------------|---|--|
| Xitoy | 490,0 | 51,8 |
| Turkiya | 116,6 | 12,3 |
| Rossiya Federatsiyasi | 60,3 | 6,4 |
| Yaponiya | 45,8 | 4,8 |
| Qozog'iston | 44,6 | 4,7 |
| AQSH | 31,7 | 3,3 |
| Germaniya | 22,8 | 2,4 |
| BAA | 21,6 | 2,3 |
| Buyuk Britaniya | 14,6 | 1,5 |
| Eron Islom Respublikasi | 11,3 | 1,2 |

Eksport va import tarkibi
(2025-yil yanvar-dekabr oylarida)

| <i>XSST tarkibi</i> | <i>jami</i> | | |
|--|------------------------|-----------------------------|-------------------------------------|
| | <i>ming AQSH doll.</i> | <i>o'sish sur'ati, % da</i> | <i>jamiga nisbatan ulushi, % da</i> |
| Eksport | 1 397 803,8 | 125,0 | 100,0 |
| Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar | 32 375,6 | 86,9 | 2,3 |
| Ichimliklar va tamaki | 0,0 | 0,0 | 0,0 |
| Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari | 18 238,4 | 90,3 | 1,3 |
| Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar | 37 621,5 | 106,9 | 2,7 |
| Hayvonlar va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar | 186,1 | 10,6 | 0,01 |
| Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar | 1 179 132,2 | 139,2 | 84,4 |
| Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari | 88 685,4 | 62,2 | 6,3 |
| Mashinalar va transport asbob-uskunalari | 3 523,8 | 165,0 | 0,3 |
| Turli xil tayyor buyumlar | 28 979,6 | 131,6 | 2,1 |
| Xizmatlar | 9 061,2 | 92,5 | 0,6 |
| Import | 946 860,8 | 195,9 | 100,0 |
| Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar | 28 925,0 | 111,6 | 3,0 |
| Ichimliklar va tamaki | 0,0 | 0,0 | 0,0 |
| Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari | 7 152,4 | 76,2 | 0,8 |
| Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar | 11 151,2 | 7,7 m. | 1,2 |
| Hayvonlar va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar | 604,5 | 26,9 | 0,1 |
| Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar | 66 925,4 | 86,6 | 7,1 |
| Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari | 135 815,6 | 138,5 | 14,3 |
| Mashinalar va transport asbob-uskunalari | 630 920,3 | 2,8 m. | 66,6 |
| Turli xil tayyor buyumlar | 22 626,6 | 125,3 | 2,4 |
| Boshqalar | 1,3 | 0,0 | 0,0 |
| Xizmatlar | 42 738,5 | 146,7 | 4,5 |

MDH mamlakatlarida eksport va import tarkibi
(2025-yil yanvar-dekabr oylarida)

| <i>XSST tarkibi</i> | <i>Jami</i> | | |
|--|------------------------|-----------------------------|-------------------------------------|
| | <i>ming AQSH doll.</i> | <i>o'sish sur'ati, % da</i> | <i>jamiga nisbatan ulushi, % da</i> |
| Eksport | 141 068,1 | 92,0 | 100,0 |
| Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar | 11 944,9 | 111,1 | 8,5 |
| Ichimliklar va tamaki | 0,0 | 0,0 | 0,0 |
| Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari | 13 396,4 | 88,2 | 9,5 |
| Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar | 593,3 | 4,0 m. | 0,4 |
| Hayvonlar va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar | 0,0 | 0,0 | 0,0 |
| Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar | 18 700,7 | 107,0 | 13,2 |
| Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari | 63 762,7 | 76,4 | 45,2 |
| Mashinalar va transport asbob-uskunalari | 3 253,9 | 183,7 | 2,3 |
| Turli xil tayyor buyumlar | 28 726,5 | 134,6 | 20,4 |
| Xizmatlar | 689,7 | 21,2 | 0,5 |
| Import | 122 449,4 | 89,3 | 100,0 |
| Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar | 13 481,7 | 64,6 | 11,0 |
| Ichimliklar va tamaki | 0,0 | 0,0 | 0,0 |
| Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari | 4 104,7 | 110,3 | 3,3 |
| Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar | 10 494,7 | 9,8 m. | 8,6 |
| Hayvonlar va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar | 600,3 | 27,5 | 0,5 |
| Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar | 8 418,0 | 63,1 | 6,9 |
| Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari | 33 494,7 | 47,3 | 27,4 |
| Mashinalar va transport asbob-uskunalari | 26 052,3 | 2,2 m. | 21,3 |
| Turli xil tayyor buyumlar | 6 786,8 | 133,4 | 5,5 |
| Boshqalar | 0,0 | 0,0 | 0,0 |
| Xizmatlar | 19 016,2 | 2,3 m. | 15,5 |

Boshqa xorijiy mamlakatlarda eksport va import tarkibi

(2025-yil yanvar-dekabr oylarida)

| <i>XSST tarkibi</i> | <i>Jami</i> | | |
|--|------------------------|-----------------------------|-------------------------------------|
| | <i>ming AQSH doll.</i> | <i>o'sish sur'ati, % da</i> | <i>Jamiga nisbatan ulushi, % da</i> |
| Eksport | 1 256 735,7 | 130,3 | 100,0 |
| Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar | 20 430,7 | 77,0 | 1,6 |
| Ichimliklar va tamaki | 0,0 | 0,0 | 0,0 |
| Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari | 4 842,0 | 96,8 | 0,4 |
| Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar | 37 028,2 | 105,6 | 2,9 |
| Hayvonlar va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar | 186,1 | 10,6 | 0,01 |
| Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar | 1 160 431,5 | 139,9 | 92,3 |
| Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari | 24 922,7 | 42,1 | 2,0 |
| Mashinalar va transport asbob-uskunalari | 269,9 | 73,9 | 0,02 |
| Turli xil tayyor buyumlar | 253,1 | 37,3 | 0,02 |
| Xizmatlar | 8 371,5 | 128,1 | 0,7 |
| Import | 824 411,4 | 2,4 m. | 100,0 |
| Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar | 15 443,3 | 3,1 m. | 1,8 |
| Ichimliklar va tamaki | 0,0 | 0,0 | 0,0 |
| Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari | 3 047,7 | 53,8 | 0,4 |
| Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar | 656,5 | 176,6 | 0,1 |
| Hayvonlar va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar | 4,2 | 6,8 | 0,001 |
| Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar | 58 507,4 | 91,5 | 7,1 |
| Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari | 102 320,9 | 3,8 m. | 12,4 |
| Mashinalar va transport asbob-uskunalari | 604 868,0 | 2,9 m. | 73,4 |
| Turli xil tayyor buyumlar | 15 839,8 | 122,1 | 1,9 |
| Boshqalar | 1,3 | 0,0 | 0,001 |
| Xizmatlar | 23 722,3 | 114,0 | 2,9 |

NAVOIY VILOYATINING EKSPORTI

(2025-yil yanvar-dekabr oylarida)

Xalqaro iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi eksportning barqaror o'sishiga ko'maklashadi va bu o'z navbatida ma'lum natijalarga erishish uchun zamin yaratadi. Eksport salohiyatini oshirish, eksportyorlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, eksportbop mahsulotlar nomenklaturasini kengaytirish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasida, eksportyorlar tomonidan 1 397,8 mln. AQSH dollari qiymatidagi (*o'tgan yilning mos davriga nisbatan 25,0 % ga ko'paydi*) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta'minlandi.


(Eksport tarkibi, ulushi % da)



Eksport tarkibida katta ulushni kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar (84,4 foiz), sanoat tovarlari (6,3 foiz) va mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar (2,7 foiz) tashkil etdi.

NAVOIY VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA EKSPORTI

(2025- yil yanvar-dekabr oylarida, ming AQSH doll.)




Viloyatning eksporti tarkibida eng yuqori ulushni Navoiy shahri 85,7 % bilan 1 197 647,0 ming AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Uchquduq tumani 0,1 % bilan 1 060,2 ming AQSH dollarini tashkil etdi.

NAVOIY VILOYATINING IMPORTI

(2025- yil yanvar-dekabr oylarida)

2025- yilning yanvar-dekabr oylarida import hajmi 946,9 mln. AQSH dollarini va oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 195,9 % ni tashkil etdi. Import tarkibida eng katta ulush, mashinalar va transport asbob-uskunalari (66,6 %), sanoat tovarlari (14,3 %) hamda kimyoviy vositalar va shunga oʻxshash mahsulotlar (7,1 %) hisobiga toʻgʻri keldi.


(Import tarkibi, ulushi % da)



Tovar va xizmatlar importi dinamikasi tahliliga koʻra, 2025- yilning yanvar-dekabr oylarida import qilingan tovarlar hajmi 904,1 mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Xizmatlar importi esa 42,8 mln. AQSH dollariga etdi.

NAVOIY VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA IMPORTI

(2025- yil yanvar-dekabr oylarida, ming AQSH doll.)



Viloyatning importi tarkibida eng yuqori ulushni Navoiy shahari 28,0 % bilan 264 946,5 ming AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa G'ozg'on shahri 0,1 % bilan 538,7 ming AQSH dollarini tashkil etdi.

Viloyatda 2025- yilning yanvar-dekabr oylari davomida 451 turdagi tovar va mahsulotlarni 71 ta mamlakatga eksport qildi. Yani eksport 1 397,8 mln. AQSH dollarini

tashkil qildi. Eng ko‘p Fransiya, Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Hindiston, Daniya, Qozog‘iston, Qirg‘iz Respublikasi, Turkiya, Afg‘oniston, AQSH, Litva, Tojikiston, Turkmaniston, Braziliya, Belarus Respublikasi, Armeniya, Ozarbayjon, Pokiston, Gruziya, Mozambik va boshqa mamlakatlarga eksport qilingan.

Jumladan, viloyatda 2025-yilning yanvar-dekabr oylarida 2 172 turdagi tovar va mahsulotlar 70 ta mamlakatdan import qilindi. Yani import 946,9 mln. AQSH dollarini tashkil qildi. Eng ko‘p Xitoy Xalq Respublikasi, Turkiya, Rossiya Federatsiyasi, Yaponiya, Qozog‘iston, AQSH, Germaniya, BAA, Buyuk Britaniya, Eron Islom Respublikasi, Koreya Respublikasi, Fransiya, Turkmaniston, Hindiston, Litva, Mongoliya, Ukraina, Shveysariya, Italiya, Finlyandiya va boshqa davlatlardan import qilingan.

Shu bilan, tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar va dunyo mamlakatlari bilan olib borilayotgan mustahkam aloqalar natijasida viloyatimizning eksport salohiyati oshib borayotgani yaqqol namoyon bo‘lmoqda.

Shuningdek, bir qator soliq, bojxona imtiyozlarining yaratilishi, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarilishi milliy mahsulotlarimizni tashqi bozorlarda mustahkam o‘rin egallashlari uchun zamin yaratmoqda.

STATISTIK KO‘RSATKICHLARGA IZOHLAR

Tovar – har qanday ko‘chma mulk, shu jumldan valyuta va valyuta qimmatliklari, elektr, issiqlik va boshqa energiya turlari, transport vositalari (yo‘lovchilar va tovarlar tashish uchun ishlatiladigan transport vositalari, shu jumladan konteynerlar va boshqa transport uskunalari bundan mustasno), intellektual mulk obyektlari.

Tovarlar eksporti – agar qonunchilikda boshqa tartib ko‘zda tutilmagan bo‘lsa, tovarlarni O‘zbekiston Respublikasi bojxona chegarasidan qaytarib olib kirish majburiyatisiz olib chiqish.

Reeksport – xorijiy tovarlar bojxona hududidan olib chiqiladigan bojxona rejimi.

Tovarlar importi – tovarlarni O‘zbekiston Respublikasi bojxona chegarasidan qaytarib olib chiqish majburiyatisiz olib kirish.

Reimport – bojxona hududidan eksport rejimida olib chiqilgan O‘zbekiston Respublikasi tovarlari O‘zbekiston Respublikasining Bojxona kodeksida ko‘rsatilgan muddatda (olib chiqilgan paytdan boshlab o‘n yil ichida) qaytarib olib kiriladigan rejim.

Tashqi savdo aylanmasi – mamlakatning muayyan davrdagi eksport va import qiymatlari summasi.

Tovarlar kelib chiqqan mamlakat – tovar to‘liq ishlab chiqarilgan yoki yetarli darajada qayta ishlov berilgan mamlakat (tovar yetarli darajada qayta ishlov berilgan mamlakat “Bojxona tarifi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunining 26- moddasiga asosan aniqlanadi).

Tovarlarning belgilangan manzili – yuklab jo‘natish paytida tovar yetkazib berilishi belgilangan mamlakat sifatida ma’lum bo‘lgan mamlakat.

Tovarlarning statistik qiymati – shartnoma valyutasidan qat’i nazar yagona bazisga keltirilgan shartnoma bo‘yicha tovarlar qiymati.

FOB (bortda erkin) – tovarni sotish sharti bo‘lib, unga ko‘ra tovar narxiga uning qiymati va tovarni kema bortigacha yetkazib berish va yuklash xarajatlari kiritiladi.

DAF (chegaragacha yetkazib berish) – tovarni sotish sharti bo‘lib, unga ko‘ra tovar narxiga uning qiymati va tovarni belgilangan joygacha yoki eksport qiluvchi mamlakat chegarasidagi joygacha yoxud qo‘shni mamlakat chegarasigacha yetkazib berish xarajatlari kiritiladi.

Xizmatlar (ishlar) eksporti — O‘zbekiston Respublikasining rezidentlari tomonidan norezidentlarga, iqtisodiy geografik joylashuvidan qat’i nazar, ko‘rsatilgan xizmatlar (bajarilgan ishlar).

Xizmatlar (ishlar) importi — norezidentlar tomonidan O‘zbekiston Respublikasi rezidentlariga, iqtisodiy geografik joylashuvidan qat’i nazar, ko‘rsatilgan xizmatlar (bajarilgan ishlar).

Ma’lumot uchun: O‘zbekiston Respublikasida tovarlar tashqi savdosi statistika ko‘rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (keyingi o‘rinlarda TIF TN) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (keyingi o‘rinlarda – XSST) ishlatiladi. Bu o‘z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni XSST bo‘yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o‘rtasida o‘tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.